

---

## 112-YoShLI MOMO MEHMONIDA



## 112-YoShLI MOMO MEHMONIDA

8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab tumanimiz hududida yashaydigan nuroniy momojonlar, yuz bilan yuzlashgan keksa onajonlar holidan xabar olinib, ularga tuman hokimligi va "Mahalla" xayriya jamoat fondi hisobidan sovg'alar taqdim etildi.

Guliston mahallasida yashovchi 112-yoshni qarshilagan Muhamarramxon-momo Qosimova xonadoniga tashrif buyurgan tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev va tuman sektorlar rahbarlari onaxonni bayram munosabati bilan tabriklab, ularga tuman hokimi tabriknomasi, "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan oziq-ovqat va qimmatbaho sovg'alarini taqdim etdilar.

Bunday sovg'a-salomlar tumanimizning boshqa mahallalarda istiqomat qiladigan nuroniylargaga ham ulashildi. Nuroniylargaga turli jamoat tashkilotlari hisobidan tashkil etilgan sovg'alar ham taqdim etildi.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-03-09 18:37:07